
DIQQAT, TANLOVDA ISHTIROK ETING!

Yurtimizda yangi yil shukuhi kezib yuribdi. Barcha viloyat, shahar hamda tuman markazlarida yangi yil archasi bezatilib, bayram yarmarkalari o'tkazilmoqda.

Aslida yangi yil kayfiyati va shukuhi – inson qo'li bilan yaratiladigan bir mo'jiza. Atrof-muhitning saranmoj-sarishtaligi va bayramona bezatilganligi kayfiyatimizni yanada ko'taradi.

Yangi yil bayrami munosabati bilan Qo'shtepa tumani hokimligi tomonidan tanlov e'lon qilinadi.

Tanlov shartlari quyidagicha:

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tumanimizdagi mavjud idora va tashkilotlar hamda ta'lim muassasalari barchaga bayram shukuhi ulashib, bino-inshooatlarni bayramga tayyorlashlari kerak. Unda tashkilotlar hududi, binosini tartibga keltirish va bayramona bezatish kerak bo'ladi.

G'oliblar hay'at a'zolari tomonidan 17-dekabr dan 25-dekabrgacha joylarga chiqib aniqlanadi va baholanadi.

1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalar 28-dekabr kuni tuman hokimining tashakkurnomasi va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

Tanlovda faol ishtirok eting va g'oliblar safidan joy oling.

Ma'lumot uchun: +99 873 425 16 43

+99 894 056 92 95

2024-12-17 10:48:07